

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH METODIK MUAMMO SIFATIDA

Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.028>

Maqolada kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti eng sodda aloqalardan murakkab, ko 'p qirrali ijtimoiy munosabatlarga tomon o'sib borish xususida fikr bayon etilgan. Agarda eng sodda aloqalar – ibtidoiy jamoa tuzumidagi urug 'a'zolarining ko 'p holatlarda bir-birlariga oziq-ovqat manbai, yuzaga kelayotgan xavf, harakatlarni tashkil etish yo 'nalishlari to 'g 'risidagi ma 'lumotlarni uzatishiga asoslangan bo 'lsa, murakkab, ko 'p qirrali ijtimoiy munosabatlar – ishlab chiqarish, xizmat ko 'rsatish, ta 'lim, sog 'lioni saqlash, xavfsizlikni ta 'minlash, fuqarolik majburiyatlarini bajarish (masalan, soliq to 'lash) jarayonida sub 'ektlarning bir-birlari bilan kundalik hamda kasbiy faoliyatni tashkil etishda ko 'zga tashlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning to 'g 'ri, oqilona tashkil etilishi, birinchidan, hal qilinayotgan masalaning ijobiy yechimga ega bo 'lishini, ikkinchidan, vaqtning tejalishini, uchinchidan, samimiyl muloqot jarayonining yuzaga kelishini ta 'minlaydi.

Kalit so 'zlar: nutq o'stirish, matn ustida ishslash, og 'zaki va yozma nutq, muloqot, so 'z ma 'nosi, nutq.

РАБОТА НАД ТЕКСТОМ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ КАК МЕТОДИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В статье излагается идея о том, что историческое развитие человеческого общества идет от простейших связей к сложным, многогранным общественным отношениям. Если простейшие связи – основаны на передаче членами клана в первобытнообщинном строе информации друг другу во многих случаях об источнике пищи, возникающей опасности, направлениях организации действий, то сложные, многогранные общественные отношения-о производстве, обслуживании, образовании, охране здоровья, обеспечении безопасности, выполнении гражданских обязанностей (например, налогообложение) проявляется в организации повседневной, а также профессиональной деятельности субъектов друг с другом в процессе налогообложения. Правильная, рациональная организация общественных отношений обеспечивает, во-первых, наличие положительного решения решаемого вопроса, во-вторых, экономию времени, в-третьих, появление процесса искреннего общения.

Ключевые слова: Развитие речи, работа над текстом, устная и письменная речь, общение, значение слова, речь.

WORKING ON THE TEXT IN READING LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL AS A METHODOLOGICAL PROBLEM

Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi

The article presents the idea that the historical development of human society goes from the simplest connections to complex, multifaceted social relations. If the simplest connections are based on the transfer of information by members of the clan in the primitive communal system to each other in many cases about the source of food, the emerging danger, the directions of organizing actions, then complex, multifaceted social relations –about production, maintenance, education, health, safety, performance of civil duties (for example, taxation) is manifested in the organization daily, as well as professional activities of subjects with each other in the process of taxation. The correct, rational organization of public relations ensures, firstly, the presence of a positive solution to the issue being solved, secondly, time savings, and thirdly, the emergence of a process of sincere communication.

Keywords: Speech development, work on text, oral and written speech, communication, word meaning, speech.

KIRISH. Har bir davlatning ta’lim sohasida bolalarda nutq o’sirish tizimning asosiy tarkibiy elementi sifatida e’tirof etilgan. O’zbekistonda ham uzuksiz ta’limning dastlabki bosqichlari – maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim davrida bolalarda nutqni o’sirish pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishi etib belgilangan. Global axborotlashuv va innovatsion ta’lim muhitining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Shaxs nutqini o’sirishda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlari boshlang‘ich davr bo‘lishi inobatga olinsa, ularning takomillashtirilishi, “boshlang‘ich ta’lim mazmunini to‘liq integrallashtirish, mazkur mazmunda ta’lim-tarbiya elementlari uyg‘unligini ta’minlash”[1] ning naqadar dolzarb ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

METODLAR. Nutq faqat fikrni ifodalash, axborot almashish, til vositalaridan foydalanish jarayoni yoki uning hosilasi [2]gina emas, balki shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi asos ham ekanligi psixologik va biologik nuqtai nazardan isbotlangan. Shu sababli yosh avlodda ilk bolalikdan nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi.

“Nutq”, “nutq o’sirish”, “matn ustida ishslash”, “matn ustida ishslash orqali nutq o’sirish”, “boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishslash orqali nutq o’sirish” kabilar tadqiqot muammosining muhim tayanch tushunchalaridir. Ularning mohiyatini yetarlicha anglash tadqiqotni olib borishda muammoning to‘g‘ri, oqilona yechimini topishga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Nazariy tahlil “nutq” tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko‘rsatdi. Xususan, “Pedagogik ensiklopedik lug‘at”da nutq “insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo‘lib, u fikrni ifodalash vositasi bo‘lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi” [3], “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)” [3], deya e’tirof etiladi. Psixologlar tomonidan nutq “odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki o‘zaro aloqa o‘rnatish yoki o‘z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni” [4], deb ta’riflangan.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo‘ladi:

1) fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o‘zaro bog‘langan ma’noli qismlarga bo‘linadi (u bog‘lanishli nutq deb ataladi) [5];

2) og‘zaki va yozma shaklda ifodalanaadi;

3) og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda kechadi;

4) shunga qaramay, og‘zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafovutlar mavjud (ular haqida ishning keyingi bobida batafsil so‘z yuritiladi);

5) nutq muloqot chog‘ida ishtirok etuvchilarning soniga ko‘ra dialogik va monologik kabi turlarga bo‘linadi;

6) dialog og‘zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo‘lib, ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasida kechadi;

7) og‘zaki nutq, tabiatiga ko‘ra, ko‘proq suhbat shaklida yuzaga keladi;

8) nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmunni ifodalash uchun til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko‘ra bir qadar an’anaviylikka ega.

Nutq o’sirish ta’lim taraqqiyoti tarixida hamisha dolzarb masalalardan bo‘lib kelgan. Jumladan, eski maktablarda qiroatxonlikning keng miqyosda yo‘lga qo‘yilishi hamda o‘qitishda usuli tahajji, usuli maddiya, usuli savtiyaga amal qilinishi bevosita nutq o’sirish bilan bog‘liq. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida usuli jadid maktablari uchun yaratilgan “Ustodi avval”, “Sabzazor”, “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Rahbari najot”, “Risolai asbobi savod”, “Qiroat kitobi”, “O‘qish kitobi” darsliklarida ham nutq o’sirish yetakchi o‘rin tutgan. “Maktabdor domlalar o‘z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga

saboq bergenlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechgani yo'q. Ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, XX asrning 20-yillarida maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o'rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlarni ta'minlamadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi. Keyinchalik 1931-yil 5-sentabr «Boshlang'ich va o'rta maktab haqidagi», 1932-yil 25-avgust «Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqidagi»gi qarorlar yuqorida qabliyoq qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o'qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi» [6]. Ko'rindaniki, nutq o'stirish va uning asosida turuvchi savod o'rgatish muammosi uzoq tarixga ega. U tabiiy sur'atda hamisha ilg'or fikrli ziyyolilarning e'tiborini o'ziga jalb qilgan.

Nutq o'stirish – shaxs tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini o'zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so'zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovchi pedagogik jarayon. O'z mohiyatiga ko'ra nutq o'stirish shaxs, jumladan, o'quvchi tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini amaliy o'zlashtirish, tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish, ravon so'zlash malakalariga ega bo'lishini ta'minlovchi metod, usul, vositalar yordamida pedagogik qo'llab-quvvatlash, to'g'ri yo'naltirish, zarur o'rnlarda kerakli choralarini ko'rish hamda jarayonga rahbarlik qilishni anglatadi.

O'z mohiyatiga ko'ra “nutq o'stirish” tushunchasi ko'p holatlarda “nutqni rivojlantirish” tushunchasiga muqobil (“o'mini almashtiruvchi”, “javob bo'luvchi”) sifatida qo'llaniladi. Ayniqsa, rus tilida olib borilgan tadqiqotlar, mazkur tilda yaratilgan adabiyotlarda maktabgacha tarbiyalanuvchilar va boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'y-fikrlari, kechinmalari (ichki nutq) ni tashqi nutqqa aylantirish xususida so'z yuritilganda tayanch tushuncha sifatida “nutqni rivojlantirish” qabul qilingan. Ayni o'rinda “ichki nutq” tushunchasining mohiyatini ham yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir: ichki nutq – til yordamida ifoda etilmagan va yozilmagan fikriy nutq bo'lib, u shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan murojaatini ifodalaydi [5]. Har qanday nutqda bo'lgani kabi ichki nutq ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Xususan, ichki nutq “aniq grammatik shaklga ega bo'lmay, u tushuncha – alohida ma'noli so'zlar hamda yaxlit iboralar yordamida shakllanadi” [6].

Nutqni rivojlantirishning didaktik talablari, unga nisbatan metodik yondashuvlar xususida so'z yuritishdan avval “rivojlantirish” atamasi aynan qanday holatni yoritishga xizmat qilishini anglab olish navbatdagi amaliy harakat uchun yo'nalishni to'g'ri belgilashga imkon beradi.

“Rivojlantirish” tushunchasi (o'zak so'z “rivoj”; arabcha “tarqalish”, “yoyilish”, “kengayish”) “bir sifat holatidan ikkinchi, yuqori sifat holatiga o'tish” [7] ma'nosini anglatadi. S.I.Ojegov hamda N.Yu.Shvedovalarning muallifligida tuzilgan “Rus tilining izohli lug'atida mazkur tushunchaga yana kengroq ta'rif berilgan: rivojlantirish – bir holatdan ikkinchi, yanada takomillashgan holatga o'tish jarayoni, eski sifat holatidan yangi sifat holatiga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqorida o'sib o'tish” [8].

M.R.Lvovning tadqiqotlarida esa bevosita “o'quvchilarning nutqini rivojlantirish” tushunchasining g'oyaviy-nazariy tadqiqi quyidagicha bayon qilingan: o'quvchilar nutqini rivojlantirish – nutqni: til vositalari (fonetika, leksika, grammatika, nutq madaniyati, uslublari) hamda til mexanizmlari (tushunchalarni anglash, o'z fikrini ifodalash)ni o'zlashtirish jarayoni [8].

Pedagogik jarayonlarda ko'p holatlarda “nutqni rivojlantirish” deyilganda shaxs nutqini bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan metod va vositalar ham e'tirof qilinadi. Tadqiqot ishida “nutq o'stirish” tushunchasini nutqni rivojlantirishning yuqorida ta'kidlangan jihatlarini hisobga olgan holda tushunmoq lozim. Biroq, ayni o'rinda aytib o'tish lozim, shaxs, o'quvchilar nutqini o'stirish (rivojlantirish) bevosita jarayon sanaladi, rivojlantiruvchi metod va vositalar jarayonning o'zi emas, balki

uning samarali, muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi omillardan biri, xolos.

Darhaqiqat, ta'limiy g'oyalari taraqqiyoti tarixining barcha bosqichlarida ham shaxs nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, notiqlik san'atining eng yuksak bosqichlari – qadimgi Rim va Gresiyada yosh avlod nutqini rivojlantirish, ularda nutq, so'z kuchi yordamida ijtimoiy subyektlarga ta'sir ko'rsatish, hatto, ijtimoiy guruhlarni ta'sirchan, yuqori darajada hissiy-estetik bayon etilgan nutq yordamida boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lishiga erishilgan.

Nutq o'stirish "boshlang'ich ta'lim tizimida uzyviylik asosida amalga oshiriladi, bir butun o'qish jarayoniga amaliy yo'nalish beradi va bolalarning ongli o'qish, uqqanlarini tushunarli qilib so'zlab berish, savodli yozishga o'rgatadi. Bolalarning yosh xususiyatini va saviyasini hisobga olgan holda, ona tili va adabiyotdan boshlang'ich bilim beriladi va shular asosida ularning nutqi boyitiladi" [5].

Boshlang'ichsinfo'quvchilarinutqinio'stirishta'limmingkeyingibosqichlarimuvaffaqiyatini ta'minlashning muhim omillaridan hisoblanadi. Shu bois, boshlang'ich ta'limga doir «Davlat ta'lim standarti», «O'qish» va «Ona tili» predmetlari bo'yicha yaratilgan dasturlar hamda bir qator ilmiy-metodik adabiyotlarda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

"O'qish" fani boshlang'ich sinflarda asosiy o'quv predmetlaridan biri hisoblanadi. Zero, mazkur o'quv predmeti yordamida o'quvchilarning savodini chiqarishga erishiladi, harflarni tanish va o'qitish asosida kitobga, kitob o'qishga qiziqish uyg'otiladi, atrof-muhit haqidagi bilimlari boyitiladi. O'quv predmetining asosiy vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, uning malakaga o'sib o'tishini ta'minlashdir.

Tadqiqotchi L.Losevaning "Matn qanday tuziladi?" nomli tadqiqoti [8]da "matn" tushunchasi "lingvistik tadqiqotning eng murakkab ob'ektlaridan biri" sifatida e'tirof etilib, uning mohiyatini asoslovchi bir qator belgilar ko'rsatib o'tilgan: 1) axborotning yozma shaklda ifodalanishi; 2) mazmun jihatidan o'ziga xos tugallikka egalik; 3) o'quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg'otish imkoniyatining mavjudligi.

Ko'rsatilgan belgilar asosida matnni mazmunan tugal va o'quvchida xabar qilinayotgan axborotga ma'lum munosabat uyg'otish bilan xarakterlanadigan yozma shakldagi axborot sifatida ta'riflash mumkin. Bizningcha, "matn" tushunchasining g'oyaviy-nazariy talqini yetarlicha yoritilmagan. Ayni o'rinda L.Losevaning matnni ifodalovchi belgilar borasidagi fikrini quyidagilar bilan to'ldirish mumkin: 1) axborotning yozma shaklda ifodalanishi; 2) mazmun jihatidan o'ziga xos tugallikka egalik; 3) o'quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg'otish imkoniyatining mavjudligi; 4) kompozitsiya, syujet, tarkibiy tuzilmaga, shuningdek, tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikka egalik; 5) muayyan sohaga taalluqli bo'lishi; 6) aniq mavzu bo'yicha axborot berishi; 7) o'ziga xos bayon uslubiga egalik; 8) aniq sub'ektgayo'naltirilganligi (masalan, o'quvchi yoki o'qituvchi uchun mo'ljallanganligi); 9) aniq maqsad uchun xizmat qilishi.

Matnni sintaktik jihatdan mazmuniga ko'ra va leksik-grammatik vositalar yordamida o'zaro bog'langan gaplar yig'indisi tarzida tushunish ham xato sanalmaydi. "Matn deganda murakkab sintaktik butunlik va erkin gaplardan iborat butunlikni tushunish kerak. Matnni sintaktik tahlili gaplar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish, matnni gapdan kattaroq sintaktik birliklarga, murakkab sintaktik butunlikka parchalashni o'z ichiga oladi" [8]. Nutq jarayonida gaplar guruhanladi, mavzu jihatdan, qurilishi va ohangiga ko'ra birlashadi va alohida sintaktik birlik – murakkab sintaktik butunlik hosil qiladi. Biroq, matndagi barcha gaplar ham murakkab sintaktik butunlikka kirmaydi, ayrimlari uning tarkibiy qismi bo'lmaydi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur tadqiqot ishida matn mohiyatini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish emas, balki, matn ustida ishlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish metodikasini tadqiq qilish maqsad qilib belgilanganligi sababli masalaning ana shu jihatni tahlil qilinadi.

Boshlang'ich sinfda matn ustida ishlashga o'quvchilarni jalb qilish o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik

talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn bilan ishslash orqali muayyan bilimlarni o‘zlashtirish, ravon va ongli o‘qish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi, nutq boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan talablar bajariladi.

«O‘qish kitobi» darsliklarida berilgan matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, ongli va ifodalni o‘qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o‘rganilayotgan materialning mazmuni, o‘quvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma, malakalari darajasiga ko‘ra amalga oshiradi. O‘quvchilarni asar matnini o‘qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e’tibor qaratiladi. O‘qish faoliyati ham nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi.

O‘quvchining o‘z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to‘g‘ri ifodalay olishi uning o‘quv-bilish faolligi darajasini, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O‘qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan qo‘yilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo‘llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko‘proq o‘zi uchun yangi so‘z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

Matnni o‘qish ko‘nikmasiga egalik, o‘z navbatida, o‘quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardan biri sanaladi.

O‘qitishning mustaqil qismi bo‘lgan har qanday dars ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Har qanday darsning umumiy maqsadi “o‘quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo‘llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o‘quvchida komil shaxsga xos fazilatlarni shakllantirishdir.

Boshlang‘ich ta’limga oid “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari”da “O‘qish” darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik talablar o‘quvchilar e’tibori nimani o‘rganish va nimani esda saqlab qolish kerak ekanligiga qaratilishidan boshlanadi.

Matn ustida ishslash orqali o‘quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o‘z munosabatini bildira olishga o‘rgatish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi.

7-9 yoshdagagi bolalarda “yozma nutq ham shakllana boshlaydi... Yozma nutqni egallashi asosida ularda turli matnlar haqida ma’lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolalarda hali o‘zi yozgan fikrlarni, so‘z va harflarni nazorat etish ko‘nikmasi yetarlicha rivojlanmagan bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Mustaqil ijodiy ishlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma’lumot to‘plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma’lum ketma-ketlikda amalga oshirish, reja tuzish ko‘nikmasini hosil qiladi. Jumlalarni to‘g‘ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so‘zlarni topish va ularni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, o‘z holatlarini topa olish va to‘g‘rilash aqliy rivojlanishning ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi”.

Tarixiy mavzuga oid hikoyalarni o‘qish oldidan o‘qituvchi o‘quvchilarning Vatan tarixi va uning shonli o‘tmishidagi buyuk siymolar haqidagi bilimlarini aniqlaydi.

She’riy matnlarni o‘qishdan oldindi tayyorgarlik ishlari ancha murakkab. Lirk asarlarni yaxlit idrok etish vazifasi shoir ruhiyatiga hamohang kayfiyat yaratish, o‘quvchilarning shoir bilan birga quvonish, hayratlanish, qayg‘urish tuyg‘usiga turtki berishdir. Bunda o‘qituvchining

kirish so‘zi qisqa, maqsadga yo‘naltirilgan hamda shoir dunyosiga kirishga ko‘maklashadigan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘qituvchining kirish so‘zi matnni o‘qish oldidan tayyorgarlikning yetakchi bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi ko‘p jihatdan uning to‘g‘ri uyushtirilishiga bog‘liqdir.

2. Matnni o‘qish va uni tahlil qilish. O‘quvchilar matnni o‘qish jarayonida uning g‘oyaviy-

badiiy xususiyatlari, asarda aks etgan voqealar bilan tanishadilar. Bunda asarning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, matnni ifodali, sharhlab va rollarga bo‘lib o‘qitish mumkin. Badiiy matnni o‘qish muallif tasvirlagan manzaralarni aniq tasavvur etishga, asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

“Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to‘g‘ri va to‘la idrok etishdan iborat”. Tahlil o‘quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo‘llashning muhim omilidir. O‘quvchilar tahlil jarayonida asarda tasvirlangan voqealarga o‘z fikrlarini bildiradilar, notanish so‘zlar ma’nosini bilib oladilar, matnning mazmun-mohiyatini to‘liq anglab yetadilar.

Aslida, “adabiy tahlilning bosh masalasi matn ustida ishslash orqali o‘tkaziladigan tahlildir. O‘quvchi mutolaa chog‘ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida uning poetikasiga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tagzaminidagi ma’noni chuqur o‘rganishga yordam beradi” [8].

O‘qish darslarida matn ustida ishslash jarayonida asosiy e’tibor uning mazmuniga qaratilsada, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqeа kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o‘tgan, hozirgi yoki kelasiz zamон shakllaridan foydalanilishini anglagan o‘quvchi matn mazmunini og‘zaki hikoyalashda adashmaydi. O‘quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe‘l-kesimlar, odatda, bitta zamон shaklida bo‘lishiga qaratish ularning nafaqat o‘qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Matnlarda jumlalararo aloqa alohida e’tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqeа-hodisa haqida gap boradigan qismi o‘zaro aloqada bo‘lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o‘quvchilarga matn qismlarini o‘qish yoki ko‘chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma’lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi.

Matndagi gaplar o‘rtasida kommunikatsiya vazifalari bilan belgilangan munosabatlar, ya’ni mazmuniy aloqa mavjud. Bu aloqa uni ifoda etuvchi leksik-grammatik vositalar orqali o‘z aksini topadi. Har qanday so‘zlarni gapga birlashtirib bo‘lmagani kabi har qanday gaplarni ham bitta bog‘lanishli matnga birlashtirib bo‘lmaydi. Masalan, “Bolalar dam olishga ketishdi”, “Gullar ochildi”, “Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi” kabi gaplarni bir matnga birlashtirib bo‘lmaydi. Ular turli mazmunga ega bo‘lgani bois biror bir munosabatga ko‘ra ham birlasha olmaydi.

3. Umumlashtirish va xulosalar chiqarish. Bu kabi ish turlari matn mazmuni yuzasidan umumiyy xulosalar chiqarish orqali unda aks ettirilgan masalalarni chuqur idrok etishga, mavzuning ochilmay qolgan qirralari haqida mulohaza yuritishga, o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratiladi.

Matn ustida ishslash jarayonida asar voqealari yuzasidan og‘zaki tasvirlash, qiyoslab hikoyalalar tuzish, adabiy qahramonlarning xatti-harakatlari, fe‘l-atvorlarini tavsiflash nutq o‘stirishning muhim vositasi sanaladi. Bu jarayonda o‘quvchilarda matnda ifodalangan jarayon, hodisa, shaxs yoki uning xatti-harakatiga nisbatan munosabat shakllanadi. Yaxshining nima uchun yaxshiliginini, yomonning nima uchun yomonligini, asar qahramonlarining qilgan ishlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida matn tahlilining asosiy vazifasidir.

1-sinfda o‘quvchilarning “Alifbe” darsligidagi rasmlar mazmunini anglash, ular asosida izchil matn tuzish, gap, so‘z va bo‘g‘in, og‘zaki va yozma nutq haqida tushuncha hosil qilish, o‘quv yili yakunida esa matn ustida ishslash orqali “O‘qish kitobi”da berilgan asarlarning mavzu doirasini aniqlash, mazmunini tayyor reja asosida va ko‘rgazmalar asosida to‘liq qayta hikoyalash, qismlarga ajratish, asarda ishtirot etuvchi qahramonlarni tavsiflash, matndagi ba‘zi so‘z ma’nolarini izohlash, o‘qilgan asar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish, shunga muvofiq bir daqiqada notanish matndan 25-30 so‘zni o‘qishlariga erishish ko‘zda tutiladi [7].

Umumiyy o‘rtalim maktablaridagi ta’limning birinchi yilida nutq

o‘stirish bo‘yicha ko‘zlangan natijaga erishilmasa, 2-sinf o‘qish darslarida matn ustida ishslash orqali nutq o‘stirish jarayoni qiyin kechadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchi tomonidan

barcha o‘quv predmetlarining o‘zlashtirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham o‘qituvchining har bir darsni qat’iy reja asosida uyushtirishi taqozo qilinadi.

XULOSA. Matnni qayta tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qayta tasvirlashdan to‘g‘ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlayotgan hayotiy manzaralarni o‘quvchilarning aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Metodika fanida matnning ikki xil yo‘l bilan qayta tasvirlanishi qayd qilinadi. Bular:

- a) so‘z bilan tasvirlash;
- b) grafik tasvirlash.

So‘z bilan tasvirlash o‘ziga xos murakkab ish turi bo‘lib, bunda asarda tasvirlangan voqeа, qahramon yoki manzarani so‘z yordamida aniq qayta tiklash ko‘zda tutiladi. Bunday tasvirlash o‘quvchilar nutqini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va talaffuz qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Aminova F. H. O‘quvchilarni muloqot matni yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T.: O‘zPFITI. 2007. – 22 b.

Aslonova O.P. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – QarDU. 2020. – 49 b.

Asqarova M., Matchonov S., Qodirova F., G‘ulomova X., Boymatova A., Bozorova M., Muhamedova D. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida nutq o‘stirish. – T.: TDPU, 2000. – 58 b.

Babaeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi (tevarak-atrofn o‘rganish misolida) – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 128 b.

Bakieva X.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – TDPU. 2019. – 47 b.

Bekniyazova N. Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T.: 1998. – 22 b.

Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 b.

Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – T.: Fan, 2007.– 144 b.

9.Ziyadova T.U. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T.: TDPI. 1995.– 19 b.